

7-sinf uchun ona tili fanidan dars ishlanmalar

Mavzu: KO'RSATISH OLMOSHLARI

Maqsadlar :

a)ta'limiy -ko'rsatish olmoshlari,ularning imlosi va o'zaro ma'no farqi haqida ma'lumot berish;

b)tarbiyaviy- tabiatga ,ma'naviy qadriyatlarga hurmat hissini ,do'stlik ruhida tarbiyalash;

s)rivojlantiruvchi-o'quvchilar nutqini rivojlantirish,savodxonligini oshirish.

Dars tipi: yangi bilimni o'zlashtirish darsi

Dars uslubi: ko'rgazmali,ijodiy

Dars usuli: bahs-munozara

Dars jihozi: tabiat manzarasi tushirilgan rasm,savollar yozilgan kartochkalar,testlar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism: psixologik iqlim yaratish

II.yangi mavzu bayoni.

Dars rejasi:

1. Ko'rsatish olmoshlari haqida ma'lumot berish;
2. Ko'rsatish olmoshlari imlosi ustida ishlash;
3. Ko'rsatish olmoshlarining gap ichida qanday gap bo'lagi vazifasida kelishi haqida ma'lumot berish;
4. Ko'rsatish olmoshlarining ma'nolari va farqi haqida tushuncha berish;
- 5.Mustahkamlash.

Dars shiori: “Kitob bilim bulog'i, o'quvchining o'rtog'i”

Yangi mavzu yuzasidan ma'lumot fikriy hujum tarzida beriladi.

O'qituvchi: -Aziz o'quvchilar, siz ertak, hikoyatlarni juda yaxshi ko'rasiz va sevib o'qiysiz,to'g'rimi? Sizlarga “Lison-ut tayr” (“Qush tili”) dan bir hikoyat aytib beraman.Ushbu hikoyatdan xulosa chiqarishga harakat qiling. O'qituvchi hikoyatni aytib beradi va undagi “Bu” , “Shu”, “U”, “O'sha”, “Ana” , “Mana” kabi ko'rsatish olmoshlarini qadim zamonlarda “Bul”, “Shul”, “Ul”, “O'shal” kabi

tarzda aytilgani va yozilgani haqida tushuncha berib, yozuv taxtasiga yozib qo'yadi. Hikoyatni tugatgach o'quvchilarga hikoyatning tarbiyaviy ahamiyati haqida bir necha savollar beradi va fikrlar xulosalanadi.

Shundan so'ng yozuv taxtasiga yozilgan olmoshlarning ma'nosiga va farqiga o'quvchilar e'tibori qaratiladi. O'quvchilar so'z ma'nosini aniqlab keluvchi ko'rsatish olmoshlarini o'zi aniqlayotgan so'zlardan oldin qo'llanishi haqida tushuncha oladilar. Bir-bir sanab o'tib, ma'nosini izohlaydilar.

O'qituvchi:- o'quvchilar ,ko'rib turganingizdek ushbu so'zlar ko'rsatish olmoshlaridir. Demak bugungi darsimiz mavzusi "Ko'rsatish olmoshlari" (yozuv taxtasiga mavzu yoziladi) O'quvchilar, keling, bugungi darsimizda ona tili fanidan sayohatga chiqaylik. Bugungi sana va mavzuni daftaringizga yozib qo'ying. "Ushbu sayohatimizdan maqsad "Bilimlar shahri"ga kirib borish. Bu yo'lda turli xil to'siqlarga duch kelamiz, albatta. To'siqlarni esa o'tgan darslarda egallagan bilimlarimiz, topqirligimiz, zukkologimiz, hozirjavobligimiz bilan yengib, manzilga mardona yetib borishimiz mumkin. Sayohat davomida bir-birimiz bilan "Meni tushun" rukni ostida ishlab, do'stona harakat qilgan va faollikni qo'ldan bermagan guruhlarimizni sovg'alar kutmoqda.

Demak, avvalo, uch guruhga bo'linamiz. Bunda oldindan tayyorlab qo'yilgan gullar rasmi bizga yordam beradi. O'quvchilar tanlagan gullarining rangiga qarab guruhga bo'linishadi. Sinf "A'lochilar", "Zukkolar", "Bilag'onlar" guruhlariga bo'linib manzilga o'tlanishadi. (Manzara tushirilgan rasm havola etiladi. Unda kuz manzarasi, tog'-toshlar, daraxt va ko'm-ko'k zilol suv tasvirlangan). Daraxt shoxidagi mevalarda xat yashiringan bo'lib, uch guruhdan 1 tadan o'quvchi xatlarni olishadi. Xatda yozilgan so'zlar bilan ko'rsatish olmoshlari ishtirokida gap tuzish topshirig'i qo'yiladi.

"A'lochilar",

Bu...

O'sha...

Mana bu...

"Zukkolar",

Shu...

Ana....

Mana shu...

"Bilag'onlar"

U

Mana ...

Anovi ...

Javoblar xulosalanadi. Ishtirokchilar o'z javoblari yuzasidan ko'rsatish olmoshlari qoidasini keltirib chiqaradilar.

Oldingi gap, gapdagi biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rnida qo'llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar ko'rsatish olmoshlari hisoblanadi. Aksariyat hollarda ko'rsatish olmoshlari so'z ma'nosini aniqlab kelganda, o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin keladi. Masalan: Bu daftar meniki.

Guruh a'zolari oldindan tayyorlab qo'yilgan rag'bat kartochkalari bilan taqdirlanishadi.

O'qituvchi:- Bolalar, manzilimizga olib boruvchi navbatdagi tilsimni bartaraf etishda bizga ushbu sehrli markerlar yordamga keldi (o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan markerlarni ko'rsatadi). Bulardan foydalangan kishi xatosiz va chiroyli yozadi. Sayohatni davom ettirishimiz uchun yo'limizni to'sib turgan tog' tepasidagi berilgan ko'rsatish olmoshlarini topib, -day, -aqa, -cha hamda kelishik hamda egalik qo'shimchalarini qo'shib, misollar yozishimiz lozim. Guruhlardan chiqqan o'quvchilar o'qituvchi yordamida tog' choqqisidagi yashirin

(ko'tariladigan qilib joylashtirilgan) savollarni olishadi. Kamchiliklar tuzatiladi:

1-guruh "A'lochilar"

U	-day
Men	-ning
Shu	-dan
Bu	-aqa

2-guruh "Zukkolar"

U	-ga
Men	-ni
Bu	-da
Shu	-ing

3-guruh“Bilag'onlar”

Bu	-dan
U	-cha
Men	-niki
Shu	-si

Kamchiliklar tuzatilgach, asos bilan qo'shimcha o'rtasiga bir n tushirib va orttirib talaffuz qilinishi hamda yozilishi tahlil etilib,o'quvchilar rag'batlantiriladi.Sayohatchilar yo'lda davom etishadi.

O'qituvchi: -o'quvchilar,yo'limizda zilol suvli daryo uchradi,undan o'tish uchun ham sinovdan o'tishimiz kerak (o'qituvchi yozuv taxtasidagi manzaraga ishora qiladi).To'g'ri javoblarimiz bizga ko'prik vazifasini o'taydi.

Har bir guruhdan ikki nafardan qatnashchi chiqadi. Savollar tanlov asosida olinadi:

- 1.Olmoshlar deb nimaga aytiladi?
- 2.Ular necha xil bo'ladi?
- 3.Olmoshlar qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanilishini toping.
- 4.Bo'lishsizlik olmoshlari haqida nimalar bilasiz?
- 5.So'roq olmoshlari haqida nimalarni bilasiz?
- 6.Otlar o'rnida almashib keluvchi olmoshlarga misollar ayting.

Ushbu savol-javob orqali olingan bilimlar yana bir bor mustahkamlanadi. O'qituvchi umumlashtiruvchi fikr berib boradi.

O'qituvchi:- Aziz bolajonlar, sayohatimiz davomida qiziqarli to'siqlardan o'tib, "Bilimlar qasri"ga ham yetib kelibmiz. Bu yerda siz-u bizni juda katta xazina kutib turibdi. Bu xazina ushbu qasrning yuragi hisoblanadi. Xazinaga erishish,qasrga kirish uchun quyidagi test sinovidan o'tishimiz lozim.

Testlardan namuna

1. Olmoshlarning qaysi turi sodda, qo'shma, juft, takroriy bo'la oladi?
- A. Kishilik olmoshlari

B. So'roq olmoshlari

S. Ko'rsatish olmoshlari*

D. Bo'lishsizlik olmoshlari

2. Quyidagi qaysi olmoshlardan ravish so'z turkumi hosil bo'lgan?

A. Akangni sensirama, beadab.

B. O'zboshimcha qiz.

S. Shu-shu Ergash qaytib kelmadi.*

D. Ozlikni anglash - dunyoni anglash.

3. Qaysi qatorda qo'shma olmoshlar berilgan?

A. Kim, qachon, hamma

B. Siz, uncha, u-bu.

S. Mana bu, ana shu, *

D. Nima-nima, kim-kim.

Testlarning javoblari tekshiriladi, o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda muhokama qiladilar

(testlarning bajarilishi vaqtida o'qituvchi qolgan o'quvchilarga qo'shimcha mashqlar berib, vaqtdan unumli foydalanishi mumkin).

O'qituvchi: -ana o'quvchilar test sinovidan ham o'tib oldik. Qasrga kirishdan oldin sizlar bilan bugungi olgan bilimlarimizni xulosalab olsak.

III. Mustahkamlash.

O'quvchilar birma-bir mavzu yuzasidan olgan bilim, ko'nikmalari haqida fikr almashadilar. O'qituvchi yordamida fikrlar xulosalanadi. Guruhlarning umumiy to'plagan ballari aniqlanadi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarga maxsus tayyorlab qo'yilgan sovg'alar beriladi. O'qituvchi: -qarang, aziz o'quvchilar biz so'qmoqlar bo'ylab, bir qancha to'siqlar osha "Bilimlar qasri"ga yetib keldik. Bunda sizni do'stligingiz, maqsad sari intilishingiz va albatta, bilimingiz qo'lladi. Demak, biz qancha ko'p o'qisak, qancha ko'p do'st orttirsak, shuncha yutuqlarga erishar ekanmiz. Hozir biz yetib kelganimiz:

“Bilimlar qasri” bu-jonajon maktabimiz, **sinovlar** -bizga berilgan imkoniyat, siz-u bizning intilish-harakatimiz. **Xazina** -bu kitob va kutubxonadir.

IV. Dars yakunlanadi. Uyga vazifa sifatida bugungi darsda o'tilganlardan foydalanib, “Kutubxona-xazina” mavzusida matn yaratish va undagi olmoshlarni topib, tahlil qilish topshiriladi.